

## HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

**Beshariq tumani “Obodonlashtirish” boshqarmasi** raxbari N. Nasipov, bundan buyon bir tomondan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan «**FERGHANA GABLE SERVICE**» ma'suliyati cheklangan jamiyati Nizom (ustav) asosida ish yurituvchi raxbari B.Djalilov Ushbu, nizomi asosida ish yurituvchi bundan buyon «Bajaruvchi» deb yuritiladi quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 «Bajaruvchi» o'ziga tegishli bo'lgan xizmat ko'rsatish, «Buyurtmachi» esa qabul qilib olingan ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

### 2. SHARTNOMA NARXI

2.1.

№	Xizmatning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	Fargona viloyati Beshariq tumani Do'stlik MFY xududida ichimlik suv taminotini yaxshilash maqsadida 1 dona suv qudugi qazish, 1dona Transformator, 1dona suv minorasi o'rnatish va 1 dona chuqurlik nasosi sotib olish ishlari uchun Tayorlangan loyixa-smeta xujjatlarini APZ, Texnik shart,Gidrogiologiya xulosasi texnik organish xulosasi, giologik tadqiqot ishlari, Topo tasvirga tushurish ishlari, ATTA loyxasi elektr taminotiloxya smeta xujjatlari ishlab chiqish, Tik quduq va suv taminoti loyxalari smetalari ishlab	Xizmat	1	19700000	19 700 000

	chiqish "SHaxarsozlik xujjalari ekspertizasi" Davlat unitar korxonasiidan ekspertizadan o'tkazib berish				
<b>x</b>	<b>Jami:</b>	<b>x</b>	<b>X</b>	<b>x</b>	

Xizmatlarning shartnomaviy umumiy baxosi **19 700 000 (O'n to'qqiz million yetti yuz ming )** so'm

### **3. XISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1 «Buyurtmachi» xizmat uchun oldindan, yetkazib berilayotgan ko'rsatilgan xizmat ning 30 foizi miqdorida pul mablagini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2 Xizmatlar «Bajaruvchi»ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

### **4. XIZMATNI YETKAZIB BERISH MUDDATI.**

4.1 «Bajaruvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng ko'rsatilgan xizmat 10 ( o'n ) ish kun muddat ichida «Buyurtmachi»ga yetkazib berishi shart.

### **5. XIZMAT SIFATI**

5.1 Ko'rsatilgan xizmat sifati belgilangan standartlarga ( muvofiqlik sertifikat ) , me'yoriy xujjatlar va «Buyurtmachi»ning talablariga mos kelishi shart.

### **6. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

6.1 «Bajaruvchi» majburiyatlari:

Shartnomada kursatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga xizmatni yetkazib berish;

Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda berilgan xizmatni qaytarib olib qo'yish xuquqiga ega;

Tegishli darajada sifatli xizmat yuborilmaganligi tugrisida bildirishnoma olgandan sung, sifatli bo'lmagan xizmatni 10 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu sharnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan xizmat baxosini qaytarib berish.

6.2 «Bajaruvchi» bergan xizmatlarini xisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. SHuningdek, xisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

«Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

«Buyurtmachi» shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, sifatiga qarab o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmatni qabul qilib olishi lozim. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan xizmat kelib tushganligi

aniqlangandan so'ng, ushbu tug'risida tegishli dalolatnoma tuzilib bu xaqida 3 kun ichida «Bajaruvchi»ni ogohlantirish. To'liq rasmiylashtirilmagan xamda xizmatning sifati, ko'rsatilmagan xisob- varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

## **7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

7.1 Ushbu shartnoma buyicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekistan Respublikasi qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgardirlar.

7.2 «Bajaruvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga ko'rsatilgan xizmatlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining- 0,5 % miqdorida «Buyurtmachi»ga penya to'laydi, lekin penya miqdori kechiktirilgan xizmat qiymatining 50 % dan oshmasligi kerak.

7.3 SHartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda xizmat berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu xizmat qiymatining 20 % miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

7.4 «Buyurtmachi» tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida «Bajaruvchi»ga penya to'laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmasligi lozim.

7.5 Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida ko'rsatilgan xizmat narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

## **8. FORS-MAJOR XOLATLARI**

8.1 Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada kursatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi xolatlar: suv toshqini, yongin, yer qimirlashi va boshka tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat kila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar tegishlidir.

8.2 Taraflar ushbu shartnomada kursatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari tutrisida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

8.3 Agar bartaraf kilib bulmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogodlantirib, shartnomaning ijrosini bekor kilish yoki kushimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

8.4 Shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga karshi kurashish buyicha koidalarga, shu jumladan amaldagi konunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik kilish, moddiy yodud

nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu darakatlarning oldini olish buyicha chora-tadbirlar belgilab olinishini kafolatlaydi.

8.5 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda va (yoki) asosli gumonlar yuzaga kelganda dardol yozma ravishda (elektron tizim orqali) yoki ishonch telefonlari orkali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda, tomonlar yuzaga kelgan dolatga oydinlik kiritish maksadida yozma izod talab qilish dukukiga ega bulib, murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki uz fikrini bildirishi mumkin.

8.6 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatlarda xavf-xatar bartaraf etilmay, tomonlar amalga oshirgan choralari korrupsion dolatni pasayishiga olib kelmasa, boshka tomon shartnomani bekor qilish yoki uning ijrosini tuxtatib quyish xuquqiga ega.

## **9. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

9.1 Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizo iqtisodiy sud orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida xal qilinadi.

9.2 SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xamda amaldagi konun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

9.3 Ushbu shartnoma 2022 yil « 31 » dekabrgacha amal qiladi. SHartnoma taraflar tomonidan imzolanib, G'aznachilik boshqarmasi ( bo'limi )da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## **10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART**

Tomonlar:

10.1 Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

10.3.Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad yetib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

## **11. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:**

**Buyurtmachi:**  
Beshariq tumani Obodonlashtirish  
boshqarmasi

**Manzil:** Beshariq sh., Oltin Vodiy k., 114


100022860302157049805110002  
STIR 206994051 MFO 00014  
OKOD 92930  
Markaziy bank Toshkent HKKMM

**Bajaruvchi:**  
FERGHANA GABLE SERVICE MCHJ  
Manzil Farg'ona sh, Vatan Ravnaqi  
ko'chasi 228 uy  
XR 20208000800242884001

STIR:302653903 MFO:01131  
Bank; Unversal bank Farg'ona filial

Rahbar: N.Nasipov

Rahbar:  B.Djalilov

	<b>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.</b> Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH
	Imzolangan sana	05.12.2022 14:46
	Hujjat kodi	HK0636637648
	Hulosa kodi	SL3825166881

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

SL3825166881

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Dustlik MFY Haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: BESHARIQ TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI tomonidan 05.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Beshariq tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**O.N.BOLTABOYEV**

05.12.2022